O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI INSON RESURLARI VA MAHALLA TARAQQIYOTINI BOSHQARISH INSTITUTI

Ro‘yxatga olindi:
№ BD-60410100-6-9
2024-yil 10-14

“TASDIQLAYMAN”
SamDU rektori:
_____ R.I.Xalmuradov
2024-yil “__” _____

“AKADEMIK KO‘NIKMALAR VA KASBIY KOMPETENTLIK”
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	400000 – Biznes, boshqaruv va huquq
Ta’lim sohasi:	410000 – Biznes va boshqaruv
Ta’lim yo‘nalishi:	60410100 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo ‘yicha) 60410600 – Bank ishi 60410900 – Biznesni boshqarish 60411000 – Inson resurslarini boshqarish

Fan/modul kodi AKKK1204	O‘quv yili 2024-2025	Semestr II	ECTS – Kreditlar 4
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4

1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy (soat)
	Akademik ko‘nikmalar va kasbiy kompetentlik	54	66	120

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**I. FANNING MAZMUNI** **Fanni o‘qitishdan maqsad** – akademik ko‘nikmalar va kasbiy kompetentlikning mohiyati va nazariy-uslubiy asoslarini tushuntirish, shaxsiy akademik faoliyat va nazariy-uslubiy asoslarni tushuntirish, shaxsiy akademik faoliyat va uni samarali tashkil etish bo‘yicha tushunchalar berish, akademik ko‘nikmalar va ularni shakllantirish jarayonining o‘ziga xos jihatlarini yoritib berish, talabalarga akademik ko‘nikmalarni rivojlantirish yo‘llari yuzasidan tavsiyalar berish, talabalarda o‘z-o‘zini boshqarish va samaradorlik uchun javobgarlik hissini uyg‘otish, talabalarda mustaqil ta’lim olish jarayonini samarali tashkil etish ko‘nikmalarini shakllantirish, talabalarning jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ko‘maklashish, ta’lim olish va kasbiy faoliyatni rivojlantirishda kreativ fikrlashning o‘rni haqida fikr yuritish, iqtisodchi mutaxassis uchun talab qilinadigan umumiy va kasbiy ko‘nikmalar bilan talabalarni tanishtirish **Fanning vazifasi** – talabalar ushbu fanni o‘qish natijasida quyidagi keng ko‘lamli ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar: akademik o‘qish, yozish, tinglash va gapirish ko‘nikmalarini rivojlantirish: tanqidiy fikrlash va o‘z-o‘zini namoyon etishning asosiy ko‘nikmalarini egallash, vaqtni to‘g‘ri taqsimlash, mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirish, akademik ko‘nikmalarga muvofiq akademik lug‘at va matn yozish sohasida zarur bilimlarni olish, omma oldida qanday qilib muvafaqqiyatli nutq so‘zlash, bahs va munozaralarda qatnashishni o‘rganish.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)	
M1	**Akademik ko‘nikmalar va kasbiy kompetentlik faniga kirish** Akademik ko‘nikmlar va kasbiy kompetentlik fanining dolzarbligi. Akademik ko‘nikmalar va kasbiy kompetentlik fanining maqsad va vazifalari. Akademik ko‘nikmalar va ularning mohiyati. Kasbiy kompetentlik va uning ahamiyati.
M2	**Shaxsiy akademik faoliyatni tashkil etish** Shaxsiy akademik faoliyat va uning mohiyati. Shaxsiy akademik faoliyatni samarali tashkil etish vositalari. Akademik ko‘nikmalar va ularni shakllantirish. Akademik ko‘nikmalarni rivojlantirish yo‘llari.
M3	**O‘z-o‘zini boshqarish va samaradorlik uchun javobgarlik** Shaxsiy rivojlanishni rejalashtirish. O‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmasini rivojlantirish. Samarali natija va muvaffaqiyat uchun shaxsiy javobgarlik. O‘quv materiallaridan maksimal foyda olish.
M4	**Ta’lim olish jarayonini samarali tashkil etish** Muvaffaqiyatli o‘rganish: intelekt, strategiya va mustaqil ta’lim. Ta’lim olish uchun CREAM strategiyasi. Ta’lim olish jarayonida vaqtni boshqarish (time management) ko‘nikmasi. Stress va noqulayliklarni boshqarish.
M5	**Tanqidiy o‘qish va eslatmalar bilan ishlash (note taking)** Tanqidiy o‘qish va uning ahamiyati. Tanqidiy o‘qishni samarali yo‘lga qo‘yish vositalari. Eslatmalar va izohlar yaratish. Eslatmalar bilan ishlashning samarali yo‘llari.
M6	**Akademik yozish** Yozish va uning turlari. Akademik yozish va uning elementlari. Akademik yozish shakllari. Akademik yozishni boyitish yo‘llari. Plagiat (ko‘chirmachilik) va unga yo‘l qo‘ymaslik.
M7	**Manbalar va adabiyotlar bilan ishlash** Manbalar va adabiyotlar turlari. Manbalar va adabiyotlarni izlash. Manbalar va adabiyotlardan samarali foydalanish. Raqamli ma’lumotlar bilan ishlash. Foydalanilgan manbalar va adabiyotlarni rejalashtirish.
M8	**Jamoada ishlash (teamworking)** Boshqalar bilan ishlash: hamkorlikda o‘rganish. Jamoa tuzish va unda ishlash ko‘nikmalari. Guruh ishi va uni samarali tashkil etish. Yetakchilik qobiliyatini rivojlantirish.
M9	**Faoliyat natijalarini taqdim qilish** Faoliyat natijalari va ularni taqdim qilish shakllari. Natijalarni rasmiylashtirish tartibi va qoidalari. Natijalarni taqdim qilish uchun dastur va vositalar.
M10	**Kreativ fikrlash** Kreativ fikrlash va uning afzalliklari. Kreativ fikrlashni shakllantirish vositalari. Kreativlikning 4P modeli. Muammolarni hal qilish (problem-solving) ko‘nikmasidan samarali foydalanish yo‘llari.
M11	**Kasbiy kompetensiya va uni rivojlanish yo‘llari** Kasbiy kompetensiya va uning mohiyati. Kasbiy kompetensiyaning o‘ziga xos xususiyatlari. Kasbiy kompetensiyalarning rivojlantirishga

	yondashuvlar. Kasbiy kompetensiyalarning rivojlantirish omillari.
M12	**Ishga joylashish ko'nikmalari** Komunikatsiya (o'zaro aloqa) ko'nikmalari. Texnologiya bilan bog'liq ko'nikmalar. Tashabbuskorlik va tadbirkorlik ko'nikmalari. Rejalashtirish va tashkiliy ko'nikmalar. "Yashil" ko'nikmalar.
M13	**Mehnat bozoriga kirib borish** Shaxsiy maqsadlar va kuchli tomonlarni qayta ko'rib chiqish. Ish o'rinlari bo'yicha ma'lumotlar bilan tanishish. Ish beruvchilar talablarini o'rganish. Shaxsiy ma'lumotlarni ifoda etuvchi hujjatlarni tayyorlash.
M14	**Munosib ish o'rinlarini egallash va kasbiy rivojlanish** Soha yoki tarmoqni aniq belgilab olish. Karyerani rejalashtirish. Ish beruvchi bilan aloqa o'rnatish va ishga joylashish. O'zining professional shaxsini rivojlantirish.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar: seminar (S)
Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.

A1	Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik faniga kirish
A2	Shaxsiy akademik faoliyatni tashkil etish
A3	O'z-o'zini boshqarish va samaradorlik uchun javobgarlik
A4	Ta'lim olish jarayonini samarali tashkil etish
A5	Tanqidiy o'qish va eslatmalar bilan ishlash (note taking)
A6	Akademik yozish
A7	Manbalar va adabiyotlar bilan ishlash
A8	Jamoada ishlash (teamworking)
A9	Faoliyat natijalarini taqdim qilish
A10	Kreativ fikrlash
A11	Kasbiy kompetensiya va uni rivojlanish yo'llari
A12	Ishga joylashish ko'nikmalari.
A13	Mehnat bozoriga kirib borish

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular

"Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik" fani bo'yicha mustaqil ta'lim va ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mustaqil ta'lim mavzulari
1.	Akademik ko'nikmalarning talabalar faoliyatidagi ahamiyati va dolzarbligi
2.	Kasbiy kompetensiya va unga nisbatan yondashuvlar
3.	Shaxsiy akademik faoliyat va uni tashkil etish vositalar
4.	O'z-o'zini boshqarish ko'nikmasini rivojlantirish yo'llari
5.	Muvaffaqiyat uchun shaxsiy javobgarlikni shakllantirish
6.	Akademik faoliyat integratsiyasi: nazariya va amaliyot uyg'unligi
7.	CREAM strategiyasi va undan samarali foydalanish
8.	Vaqtni boshqarish (time management) ko'nikmasi va rivojlantirish yo'llari
9.	Tanqidiy o'qish va samarali foydalanish
10.	Eslatmalar bilan ishlash (note-taking) va foydali jihatlari
11.	Akademik yozish va samarali amalga oshirish omillari
12.	Adabiyotlarni izlash va tanlash
13.	Plagiat va uning salbiy oqibatlari
14.	Jamoada ishlash (teamworking) va uning afzalliklari
15.	Kreativ fikrlash va uni rivojlantirish yo'llari
16.	Texnologiya bilan bog'liq ko'nikmalar
17.	"Yashil" ko'nikmalar va uning foydali jihatlari
18.	Fanlararo bilimlar va kasbiy rivojlanishdagi o'rni
19.	Tadqiqotlar olib borish jarayoni va uni tashkil etish
20.	Ish o'rinlari bo'yicha ma'lumotlar bilan tanishish manbalari

"Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik" fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi. Mazkur vazifalarni yaxshiroq tasavvur qilish va amalga oshirishda ushbu fan ham ma'lum hissa qo'shadi, deb o'ylaymiz. Shundan kelib chiqqan holda fan vazifasi aniqlangan: oliy ta'lim standartlari va o'quv dasturlari talablariga muvofiq talabalar, o'quvchilarda tadbirkorlikning mohiyati, ahamiyati va roli, belgilari va tamoyillari, ijtimoiy, huquqiy, tashkiliy, moddiy, moliyaviy, insoniy, boshqarish, marketing, tahliliy asoslari to'g'risida bilimlar tizimini shakllantirish; O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash siyosati, amaliyoti, muammolari va istiqbollari to'g'risida tasavvur hosil qilish; tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Shu mazmunda MTda nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik tushunchasini bilib oladi. Shaxsiy akademik faoliyat va uni samarali tashkil etish jarayonini anglaydi. Akademik ko'nikmalarni rivojlantirish vositalaridan foydalanishni biladi. • Akademik ko'nikmalar va ularni shakllantirish jarayonining o'ziga xos jihatlarini tavsiflaydi. O'z-o'zini boshqarish va samaradorlik

	uchunjavobgarlik hissi shakllanadi. Mustaqil ta'lim olish jarayoni samarali tashkil etish ko'nikmalari rivojlanadi. • Kreativ fikrlash va uni rivojlantirish yo'llarini bilib oladi. Iqtisodchi mutaxassis uchun talab qilinadigan umumiy va kasbiy ko'nikmalarini bilib oladi.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish • esse, tezis va maqolalar yozish • *vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) yechish* • *jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim* • muhokamalarda ishtirok etish • kichik guruhlarda ishlash • loyiha ish bajarish • taqdimot tayyorlash • turli darajadagi testlarni yechish • so'rov o'tkazish • muammolarni hal qilish
5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

6. ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Ochilova G.O., Akbarova S.Sh. Kasbiy kompetentlik. (Darslik). T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022. 324 b
2. D.X.Aslanova, F.F.Salomova, Y.M.Halikov. Kasbiy kompetentlik. O'quv qo'llanma. Samarqand: iqtisodiyot, 2020 yil, 86 b

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi 2019 yil 29 dekabr
3. Sh. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU 2017. – 104 b.

AXBOROT MANBALARI:

1. https://president.uz/uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
2. https://senat.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining rasmiy veb-sayti
3. https://parliament.gov.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining rasmiy veb-sayti
4. https://gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Hukumati rasmiy portal
5. https://www.imv.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti
6. https://mehnat.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining rasmiy veb-sayti
7. https://gov.uz/en/miit – O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining rasmiy veb-sayti
8. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy-veb-sayti.
9. https://soliq.uz/ – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasining rasmiy veb-sayti
10. https://www.bojxona.uz/uz/ – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining rasmiy veb-sayti
11. https://www.lex.uz/uz/ – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining qonunchilik hujjatlari elektron bazasi.

7.	Fan dasturi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Kengashining 2024 yil "24" avgust dagi 1 -son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
8.	**Fan/modul uchun mas'ullar:** **N.U.Arabov.** – Sharof Rashidov nomidagi SamDU, "Inson resurslarini boshqarish" kafedrasi mudiri., i.f.d., professor. **S.J.Sultonov.** - Sharof Rashidov nomidagi SamDU, "Inson resurslarini boshqarish" kafedrasi assistenti
9.	**Taqrizchilar:** Z.J.Rasulov – SamDU, «Raqamli iqtisodiyot» kafedrasi dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi. +998 97 925 03 33 Ayubov I.I – SamISI, "Iqtisodiy nazariya" kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo 'yicha falsafa doktori, dotsent. +998 94 472 00 54

Universitetning 2024-yil 16-avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – Arabov N.U.

Kafedra mudiri **N.U.Arabov**

Institut direktori: **Sh.D.Djurakulov**

Sharof Rashidov nomidagi
SamDU O'quv ishlari bo'yicha
1-prorektor: **A.S.Soleyev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti Inson resurslarini boshqarish kafedrasi o'ituvchisi Sultonov S.J. muallifligida tayyorlangan "Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik" fanidan tuzilgan fan dasturiga

TAQRIZ

"Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik" fani o'qituvchi va talaba o'rtasidagi o'quv jarayonini rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu fan nafaqat kasbiy bilimlarni shakllantirish, balki zamonaviy ta'lim tizimida talabalar uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalarni rivojlantirishga ham qaratilgan. Fanning maqsadi talabalarda ilmiy-tadqiqot olib borish, axborotlarni tahlil qilish, hamda muammoli vaziyatlarni hal etish qobiliyatlarini shakllantirishdir.

Fanda asosan akademik yozuvlar, muloqot ko'nikmalari va kasbiy faoliyatda samarali o'zaro aloqalarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu mavzular kelajakdagi mutaxassislar uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Fan talabalarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga, ularga mustaqil ilmiy ishlarni tayyorlash uchun mustahkam asos beradi.

Fanning o'qitish jarayonida faoliyat ko'rsatgan didaktik materiallar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, talabalar orasida o'zaro muloqot va jamoaviy hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi. Shuningdek, talabalarning kasbiy kompetentliklarini oshirishda interaktiv metodlar, masalan, rolli o'yinlar va amaliy mashg'ulotlar muvaffaqiyatli qo'llanilgan.

Umuman olganda, "Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik" fani, talabalarning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatiga muhim hissa qo'shib, ularning akademik va kasbiy rivojlanishiga katta yordam beradi. Bu fan, o'z maqsadi va tarkibi bilan, ta'lim jarayonida asosiy o'rinni egallaydi.

Shularni inobatga olib, "Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik" fani yuzasidan tayyorlangan fan dasturi talabalarga yuqori darajada bilim olishiga ko'makchi bo'ladi deb hisoblayman

Samarqand iqtisodiyot va servis
instituti, «Iqtisodiy nazariya» kafedrasi dotsenti,
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori, dotsent **Ayubov I.I.**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Inson resurslari va mahalla taraqqiyotini boshqarish instituti o'ituvchisi Sultonov S.J. muallifligida tayyorlangan "Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik" fanidan tuzilgan fan dasturiga

TAQRIZ

"Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik" fani talabalarning akademik va kasbiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Ushbu fan talabalarga o'z-o'zini boshqarish, shaxsiy akademik faoliyatni samarali tashkil etish va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni beradi. Ayniqsa, tanqidiy o'qish, eslatmalar olish, vaqtdan unumli foydalanish va kreativ fikrlash kabi jihatlar fanning dolzarbligini oshiradi.

Fan talabalarning akademik yozish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ularga plagiatga yo'l qo'ymaslik va manbalar bilan ishlashning to'g'ri yo'llarini o'rgatadi. Shu bilan birga, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiy javobgarlikni oshirish va mehnat bozoriga kirib borish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni shakllantirish fanning asosiy maqsadlari orasida joy oladi.

Fan doirasida CREAM strategiyasi kabi usullarni qo'llash talabalarga ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda yordam beradi. Jamoada ishlash, yetakchilik qobiliyatini rivojlantirish va faoliyat natijalarini taqdim qilish kabi mavzular esa talabalarni kelajakdagi kasbiy hayotga tayyorlashda katta ahamiyatga ega.

Umuman olganda, "Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik" fani nafaqat talabalarning nazariy bilimlarini, balki ularning real hayotdagi kasbiy faoliyatlarida muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni ham rivojlantiradi.

Shularni inobatga olib, "Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik" fani yuzasidan tayyorlangan fan dasturi talabalarga yuqori darajada bilim olishiga ko'makchi bo'ladi deb hisoblayman.

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasi dotsenti, i.f.n. **Z.J.Rasulov**

RESURSLARI VA MAHALLA TARAQQIYOTINI BOSHQARISH INSTITUTI